



JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR BO'YICHA TUSHUMLARNI PROGNOZ QILISH MASALALARI

ISSUES OF FORECASTING REVENUES FROM PERSONAL INCOME TAXES

**¹Babayev Shavkat
Babramovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliq va soliqqa tortish"
kafedrası professor v.b., PhD, E-mail: sh.babaev@tsue.uz

ORCID: 0000-0002-1630-4784

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada soliqlarni prognozlash jarayonida qo'llanilayotgan metodologiyalar tahlil qilinib, prognoz ko'rsatkichlarining aniqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yondashuvlar yoritiladi. Xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha rejalashtirilgan tushumlar va ularning amalda bajarilish darajalari o'rtasida yuzaga kelgan tafovutlar iqtisodiy va institutsional omillar tahlil qilinadi.

Eng. - This article analyzes the methodologies applied in the process of tax forecasting, highlighting the approaches that contribute to ensuring the accuracy of forecast indicators. In particular, it examines the discrepancies between the projected revenues from personal income tax and their actual execution levels, with a focus on the underlying economic and institutional factors.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *soliq prognozlash, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, tushumlarning bajarilish darajasi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, mikrosimulyatsion modellar, ekstrapolyatsiya usullari, fiskal siyosat.*

❖ *tax forecasting, personal income tax, revenue performance, macroeconomic indicators, microsimulation models, extrapolation methods, fiscal policy.*

Kirish.

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi shaklidan qat'i nazar, barcha mamlakatlar uchun budjet tizimining barqarorligi va daromadlar bazasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat budjeti daromad bazasini kengaytirish masalasi davlat moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish jarayoni zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruvning institutsional samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu islohotlar doirasida fiskal nazoratning avtomatlashtirilgan tizimlari orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, shaffoflikni

ta'minlash va soliq yuki adolatli taqsimlanishini kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Bunda soliq siyosatining faqat fiskal jihatlarigagina emas, balki uning makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi funksional ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq siyosati — bu nafaqat budjet daromadlarini shakllantirish vositasi, balki iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, investitsion faollikni rag'batlantirish va davlat hamda xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy muvozanatga erishishning strategik mexanizmidir. Shu ma'noda, soliq siyosati iqtisodiyotni muvozanatlashtiruvchi va

ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi vosita sifatida qaraladi.

Soliq organlari faoliyatining samaradorligi, avvalo, soliq tushumlarining hajmi va ularning barqarorligi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda zamonaviy iqtisodiy-analitik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan prognozlar muhim amaliy ahamiyat kasb etib, fiskal siyosatning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, statistik va iqtisodiy modellash tirish uslublariga tayangan holda amalga oshiriladigan prognozlash jarayonlari soliqlar tushumining barqarorligini ta'minlash, fiskal muvozanatni saqlab qolish hamda budjet resurslarini manzilli taqsimlash imkonini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

V.A. Krasnitskiyning fikriga ko'ra, soliqlarni prognozlash – bu davlat budjet tizimining (jumladan, respublika, viloyat, tuman, shahar budjetlari hamda budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari) soliq salohiyati va yig'imlar tushumlarini kompleks baholash jarayonidir [1]. Ushbu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari asosida shakllanadi va fiskal siyosatning rejalashtirish mexanizmidagi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

S.Y. Popkov ta'kidlashicha, soliqlarni prognozlash jarayoni nafaqat soliq tushumlarini bashorat qilish, balki fiskal siyosatdagi o'zgarishlarning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish orqali davlat moliyaviy siyosatining barqarorligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida xizmat qiladi [2].

M.M. Butakova ta'kidlashicha, uzoq muddatli soliq rejalashtirishda odatda alohida soliqlar bo'yicha tushumlar emas, balki ularning umumiy yig'indisi kompleks tahlil qilinadi. Natijada, ushbu yondashuv davlat soliq tizimini barqaror rivojlantirish, fiskal siyosatning uzviyligini ta'minlash hamda makroiqtisodiy muvozanatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan strategik

konsepsiyalarni ishlab chiqishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [3].

I.A. Yakovlevaning ilmiy izlanishlarida qayd etilishicha, soliqlarni prognozlash jarayonida ekstrapolyatsiya usullarining qo'llanilishi muayyan metodologik cheklolarga ega. Xususan, ushbu usullar ilgari kuzatilgan statistik tendensiyalarning kelajakda ham saqlanib qolishi faraziga asoslanadi. Bunday yondashuv esa prognozlarning ssenariyli modellardan yiroqligiga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muqobil yo'nalishlarini hisobga olmasligiga olib keladi. Natijada, uzoq muddatli prognozlar uchun ushbu usullar yetarli aniqlikni ta'minlamasligi mumkin [4].

S.E. Shirinov o'zining ilmiy izlanishlarida davlat budjetining soliq daromadlarini prognozlash bo'yicha ekonometrik modellarni ishlab chiqishda rioya qilinishi lozim bo'lgan asosiy metodologik tamoyillarni aniqlagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliqlarni prognozlashda ma'lumotlarning taqqoslamaligi va kelishilishi, o'xshashlik, o'zgaruvchining o'tgan davrdagi xatti-harakatlari kelajakda ham davom etishi, katta miqdordagi ma'lumotlardan foydalanish tamoyillarini qo'llash lozimligi qayd etilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mamlakat budjet daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatidan tashqari holatlarda daromad, yer va mol-mulk solig'i olinadi. Daromad solig'i fuqarolarning mehnat faoliyatidan, tadbirkorlikdan, mol-mulk ijarasi, dividendlar, foizlar va boshqa manbalardan

olgan daromadlariga nisbatan qo'llaniladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i rezident va norezident shaxslar uchun farqlanadi. Rezidentlar barcha manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliq to'lashsa, norezidentlar faqat O'zbekiston hududidagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladi.

Mol-mulk solig'i jismoniy shaxslar egaligida bo'lgan ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan undiriladi. Bu soliq turi mulkning kadastr qiymati asosida hisoblab chiqiladi va har yili to'lanadi. Soliq stavkalari mulkning joylashuvi, turi hamda qiymatiga qarab farqlanishi mumkin. Mol-mulk solig'i mahalliy budjetlar uchun muhim daromad manbasi bo'lib, u infratuzilma rivoji va kommunal xizmatlarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Yer solig'i esa jismoniy shaxslar tasarrufida bo'lgan yer uchastkalariga nisbatan undiriladi. Bu soliq turi yer maydonining o'lchami, yaroqliligi va joylashgan hududiga qarab belgilanadi. Yer solig'i ham mol-mulk solig'i kabi mahalliy budjet daromadlari tarkibida muhim o'rin tutadi va mahalliy hokimiyatlar faoliyatini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yer solig'i yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularni samarasiz egallab turishning oldini olish va mulkdorlarning javobgarligini oshirish vositasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat budjeti uchun muhim manba bo'lib, ularning to'g'ri prognozlanishi, adolatli va shaffof undirilishi soliq tizimining barqarorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu bois, soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida jismoniy shaxslar bilan samarali ishlashning institutsional va texnologik mexanizmlarini yanada optimallashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bu esa soliqqa tortish bazasining kengayishiga, soliq tushumlarining barqarorligiga va fiskal intizomning kuchayishiga xizmat qiladi hamda davlat

moliyaviy siyosatining samaradorligini ta'minlaydi.

Prognozlash xo'jalik yurituvchi subyektlar va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini o'rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ajralmas metodologik vosita hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy muhitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning deyarli barcha faoliyat yo'nalishlari strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ilmiy asoslangan prognozlash yondashuvlariga katta ehtiyoj sezmoqda. Bu holat iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, tashqi omillarning beqarorligi hamda raqobat sharoitida samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish zaruriyati bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, prognozlash — bu nafaqat kelajakdagi tendensiyalarni aniqlash vositasi, balki resurslarni oqilona taqsimlash, risklarni baholash va strategik maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan muhim boshqaruv instrumenti sifatida qaraladi.

Soliq tushumlari hajmini prognozlashda eng aniq natijalar mikrodarajadagi (jismoniy shaxslar, xonadonlar, firmalar va boshqalar) ma'lumotlarga asoslangan usullar yordamida olinadi. Mikrosimulyatsion modellar soliq to'lovchilar daromadlarini ularning tarmoqlar yoki boshqa mezonlar bo'yicha guruhlangan holda aniq baholash imkonini beradi. Ushbu modellar soliq bazalarining tarkibini tahlil qilish, tushumlarning yetishmasligini aniqlash, soliq islohotlarining turli yo'nalishlari ta'sirini baholash va turli soliq turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish imkonini yaratadi. Mikrosimulyatsion modellar ma'lum davrga oid soliq deklaratsiyalari namunasi asosida quriladi va soliq to'lovchining ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflari bilan boyitiladi. Bu jarayonda regressiya tahlili usullaridan foydalaniladi.

Mikrosimulyatsion modellar ikki turga bo'linadi: statik va dinamik. Statik modellar soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning qisqa muddatli ta'sirlarini hisobga olgan holda prognoz tuzish uchun ishlatiladi. Dinamik

modellar esa uzoq muddatda soliq to'lovchilarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni, shuningdek, qonunchilikdagi o'zgarishlar sababli talab va ishlab chiqarish omillari bozoridagi strukturaviy siljishlarni hisobga oladi. Ushbu model AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladi.

Agar soliq to'lovchilarning individual hisobotlari mavjud bo'lsa, prognozlashda "soliq kalkulyatorlari" usulidan foydalanish mumkin. Bu yerda ikki asosiy yondashuv qo'llaniladi: vakil soliq to'lovchi va agregatsiyalash.

Vakil soliq to'lovchi usuli – har bir guruh uchun tipik vakil tanlab olinadi va uning individual deklaratsiyasi asosida mavjud soliq majburiyatlari hisoblab chiqiladi. Bu usul turli toifadagi soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning ta'sirini modellashtirish imkonini beradi.

Agregatsiyalash usuli esa bir necha yilga oid individual soliq hisobotlari, iqtisodiy o'sish sur'atlari va deflyator qiymatlari asosida umumiy soliq tushumlarini prognozlashga xizmat qiladi. Soliq to'lovchilar guruhlariga ajratiladi va har bir guruhga ma'lum og'irlik belgilanadi. So'ng har bir soliq to'lovchi uchun alohida soliq majburiyatlari hisoblanadi va bu natijalar asosida keyingi davr uchun prognoz tuziladi. AQSh G'aznachiligi aynan shu metodologiyadan foydalanadi va bu asosda soliq tizimining daromadlarni muvozanatlashtiruvchi rolini baholash uchun

o'rtacha chegaraviy soliq stavkalari hisoblab chiqiladi.

Ekstrapolyatsion usullar – bu o'zgaruvchining faqat o'zining retrospektiv qiymatlariga asoslangan iqtisodiy-matematik tahlil va prognozlash usullaridir. Bunday yondashuvda prognoz avvalgi yillardagi dinamikaga asoslangan model yordamida tuziladi. Ekstrapolyatsiya usullarining asosiy kamchiligi – bu usullarning "avtonom" (ya'ni, boshqa omillarga bog'liq bo'lmagan) xarakteridir. Ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish stsenariylariga bog'liq emas, balki mavjud tendensiyalarning davom etishini taxmin qiladi. Shu sababli, soliq tushumlari, soliq bazalari va yig'im darajasini modellashtirish uchun bu yondashuv samarali hisoblanmaydi.

Mamlakatimizda soliqlar bo'yicha tushumlarni prognozlash masalasi davlat budjetining barqarorligini ta'minlash, soliq siyosatini optimallashtirish hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni oldindan baholashda muhim o'rin egallaydi. Soliq tushumlarini prognoz qilish davlatning ijtimoiy xarajatlarini rejalashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha prognozlash masalalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Quyidagi 1-jadvalda jismoniy shaxslardan undirilgan daromad solig'ining 2012–2024-yillar davomidagi miqdoriy ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

1-jadval

2012–2024-yillarda jismoniy shaxslardan undirilgan daromad solig'i hajmi (mlrd. so'm) [7]

Yil	Jismoniy shaxslar daromad solig'i	O'zgarishi (foizda)
2012	2301,8	–
2013	2717,3	18,1
2014	3261,7	20,0
2015	3800,7	16,5
2016	4137,4	8,9
2017	4876,4	17,9
2018	6422,7	31,7
2019	12668,5	97,2

2020	15140,8	19,5
2021	18917,7	24,9
2022	24284,5	28,4
2023	29917,4	23,2
2024	35384,0	18,3

Mazkur davr tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha tushumlar hajmi yilma-yil barqaror o'sib borgan. 2012-yilda bu ko'rsatkich 2301,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 35384,0 mlrd. so'mga yetgan. Ayniqsa, 2019-yilda kuzatilgan keskin o'sish (97,2 foiz) soliq siyosatidagi tub islohotlarning amalga oshirilishi, soliq bazasining kengaytirilishi, rasmiy bandlik darajasining oshishi natijasida yuzaga kelgan.

2020-yildan boshlab daromad solig'i tushumlari yildan-yilga 18-28 foiz oralig'ida o'sib borgan. Bu holat fiskal siyosatning nisbatan barqaror va izchil amalga oshirilayotganidan, shuningdek, soliq ma'murchiligi sohasida olib borilayotgan institutsional islohotlar va raqamli boshqaruv mexanizmlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi orqali yuqori samaradorlikka erishilayotganidan dalolat beradi. Xususan, soliq ma'lumotlarining ochiqligi, soliq to'lovchilarning identifikatsiyasi va soliq bazasining kengaytirilishi fiskal daromadlarning prognozga muvofiq shakllanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda davlat budjetini ilmiy asosda prognoz qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bu borada istiqbolli fiskal rejalashtirish doirasida budjet tushumlarining o'zgarish dinamikasini aniqlash va kelgusi yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan fuqarolar uchun budjet nashrlari muntazam e'lon qilinmoqda. Ushbu nashrlar budjet jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, moliyaviy inklyuziyani oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga nisbatan ishonchni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

2-jadvalda 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr mobaynida fuqarolar uchun budjet hujjatlarida e'lon qilingan jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari va ularning amaldagi ijrosi taqqoslab keltirilgan. Ushbu taqqoslash orqali rejalashtirilgan tushumlar va ijro o'rtasidagi tafovutlar aniqlanadi hamda fiskal siyosatning aniqligi va samaradorligi baholanadi.

2-jadval

2022-2024 yillarda jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha prognoz va ijro taqqoslamasi (trln. so'm) [7]

Yillar	Prognoz ko'rsatkichi	Ijro ko'rsatkichi	Farq (trln. so'm)	Bajarilish darajasi (foizda)
2021	16,1	18,9	2,8	117,4
2022	22,0	24,3	2,3	110,5
2023	28,3	29,9	1,6	105,7
2024	38,5	35,4	-3,1	91,9

2021-2023-yillar davomida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha budjet tushumlari prognoz

ko'rsatkichlaridan ortiq undirilgan. Bu holat mamlakatda ish haqi fondining barqaror o'sib borishi, bandlik darajasining ortishi hamda

soliq ma'murchiligining kuchaytirilishi bilan izohlanadi. Xususan, raqamlashtirish jarayonlari va soliqqa tortish bazasining aniqlashtirilishi soliq tushumlarini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Biroq 2024-yilgi statistik ma'lumotlar ushbu tendensiyaning izchil saqlanmaganini ko'rsatadi. Aniqlanishicha, ushbu yilda prognoz ko'rsatkichi 38,5 trln. so'm etib belgilangan bo'lsa-da, amalda undirilgan mablag'lar miqdori 35,4 trln. so'mni tashkil etib, reja 8,1 foiz yoki 3,1 trln. so'mga kam bajarilgan. 2025-yil prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha davlat budjetiga 42,0 trln. so'm miqdorida tushum tushishi kutilmoqda, bu esa 2024-yil prognoziga nisbatan 3,5 trln. so'mga yoki 9,1 foizga ko'pdir. Iqtisodiyot va Moliya vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning birinchi choragida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha davlat budjetiga 9,3 trln. so'm miqdorida tushum tushgan. Bu ko'rsatkich yillik prognoz bo'yicha belgilangan 42,0 trln. so'mlik umumiy tushumning qariyb 22,1 foizini tashkil etadi. Mazkur natijalar yillik prognozga nisbatan nisbatan pastroq bajarilish darajasini ko'rsatmoqda, chunki har chorakda tushumlarning teng taqsimlanishi holatida bu ko'rsatkich 25 foiz atrofida bo'lishi kerak. Shu bilan birga, ayrim yirik to'lovlar yilning ikkinchi va to'rtinchi choraklariga to'g'ri kelishi amaliyotda tez-tez uchraydigan holat bo'lib, bu yil davomida o'zgaruvchan tushum ritmini yuzaga keltiradi. Shu sababli, baholashda choraklik o'zgarishlarga moslashuvchan yondashuv talab etiladi. Kelgusi choraklarda prognoz bajarilishini ta'minlash uchun iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va soliq intizomini yanada kuchaytirish zarur bo'ladi.

Tahlil etilgan statistik ko'rsatkichlar jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha budjet tushumlarini prognozlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularni iqtisodiy real holatlarga moslashtirish

muhimligini ta'kidlamokda. Bu borada soliq tushumlariga ta'sir qiluvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, ish haqi dinamikasi, bandlik strukturasidagi o'zgarishlar va norasmiy iqtisodiyot ulushining kamaytirilishi doimiy monitoring qilinishi lozim. Prognozlashda zamonaviy iqtisodiy-modellashtirish vositalaridan foydalanish, statistik axborotlar bazasini kengaytirish va real sektor bilan soliq siyosati o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarni aniq prognozlash davlat budjeti barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2021-2023 yillardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, prognoz ko'rsatkichlari amalda yuqori darajada bajarilgan, bu esa iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlikning kengayishi va soliq ma'murchiligining takomillashgani bilan bog'liq. Shu bilan birga, 2024-yilda reja va ijro o'rtasidagi sezilarli tafovut mavjud bo'lib, bu soliq prognozlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Soliq tushumlarini prognozlashda statistik va iqtisodiy-modellashtirish metodlarining o'rni beqiyosdir. Xususan, mikrosimulyatsion modellar soliq bazasining tarkibini tahlil qilish, turli islohotlarning ta'sirini baholash va real sektor holatidan kelib chiqib aniq prognozlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar soliq tushumlaridagi farqlarni aniqlashtirish va ularni kamaytirish bo'yicha samarali choralar ko'rishga imkon yaratadi.

Shuningdek, ekstrapolyatsion usullar qisqa muddatli prognozlar tuzishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, soliq yig'imlarining tarixiy dinamikasiga asoslanadi. Biroq bu usullar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ssenariylarini inobatga olmagani bois, ularni qo'llashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Shu

nuqtai nazardan, ularni boshqa analitik metodlar bilan integratsiyalash tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha prognozlashda ilg'or statistik modellar, to'liq va

sifatli ma'lumotlar bazasi, hamda iqtisodiy vaziyatga moslashuvchan yondashuvlar qo'llanilishi zarur. Faqat shunda prognozlarning aniqligi oshib, budjet siyosati samaradorligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Красницкий В.А. Эффективная реализация аспектов налогового прогнозирования и планирования в рамках развития налогового администрирования // Вестник Челябинского государственного университета С.113.
2. Попков С.Ю. Информационная база прогнозирования, требования к статистическим данным // Журнал «Бизнес в законе», 2012, №2, –С.371-373.
3. Бутакова М.М. - Экономическое прогнозирование: методы и приемы практических расчетов: учебное пособие / М.М.Бутакова. – М.: КНОРУС, 2008. – 168с.
4. Яковлева И.А. О моделях прогнозирования налоговых поступлений // Научный журнал «Фундаментальные исследования», 2008, №2.
5. Shirinov S.E. Davlat budjetining solikli daromadlarini prognoz qilish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2024-yil. 85 b.
6. www.imv.uz – Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sahifasi.